



1930

**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**



O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag'ishlangan an'anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish		
Zaripov B.	Давлат тили – миллий тараққиёт ва соғлом тафаккур мезони	4
Xamidov O.X.	Тил – миллатнинг ўзлиги	7
Rustamov A.	Учинчи ренесансга давлат тили билан эришамиз	9
Muxammedov M.M.	Тил – миллат кўзгуси, миллат кўёши	15
Jamilova B.S.	Ona tiliga muhabbat – millat qudratiga dalolat	18
Quvvatova D.H.	Юрагимнинг остида сайраб турган булбулим	21
Samandarova G.Y.	O'zbek tili – millat g'ururi	24
Yuldasheva D.N.	Ўзбек тилидек сўзга, иборага, ибрату ҳикматга бой тиллар санокли	25
1-sho'ba. O'zbek tilshunosligining nazariy masalalari		
Abuzalova M.Q.	Лингвистика ва соҳалар ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида	32
Axmedov A.R.	Qiyosiy-tarixiy metod	38
Asadov T.H., Mardonova S. O.	Badiiy asarda individual neologizm-semalar xususida	44
Hamdamova S. Sh.	“Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur”	49
Nazarova S.A., Hojiyeva M.Y.	[I~O] qurilmali birikmalarning badiiy nutqqa xoslanishi	53
Nazarova S.A., Yoqubova Sh.Y.	[I~F] qurilmali fe'lli birikmalarning nutqiy imkoniyatlari	60
Po'latova Z.M.	Tilning taraqqiyot bosqichlari	66
Rajabov D.Z., Bozorova G.Z.	O'zbek tilidagi ayrim pleonastik birliklar xususida tasnifi	68
Sa'dullayeva M.Q.	O'zbek xalq maqollarida “muhabbat” konseptining antroposentrik tadqiqi	73
Safarova M.Z.	Etnotoponimlar xususida (Vobkent tumani misolida)	76
Tilavova M.A.	Frazeologik birliklarning badiiy matndagi o'rni	80
2-sho'ba. Amaliy tilshunoslik masalalari		
Abuzalova M.Q., Boltayeva N.O'.	Tabassum –muloqotning universal vositasi sifatida	84
Adizova N.I.	Shoir Erkin Vohidovning antonimlardan foydalanish mahorati (shoir dostonlari misolida)	89
Ahmadova U.Sh., Latipova D.K.	Hunarmandchilik sohasida perifrazalar	95
Aminova M.	Insondagi ijobiy xarakter-xususiyatni baholovchi	99

bo‘lmagan muloqotning universal vositalaridan biridir. Bu xohlagan millat vakili - evropalik, yaponiyalik yoki eskimos, o‘zbek uchun umumiy bo‘lgan yuz mushaklarining harakati. Tabassum nolingvistik muloqotning eng muhim vositalaridan biri hisoblanib, muloqotning boshlanishiga ham, muloqot jarayoniga ham yordam beradi. Darhaqiqat, tabassumga javoban, ko‘pincha, katta auditoriya oldida nutqni va yakkama-yakka suhbatni osonlashtiradigan javob keladi. Tabassum bilan birga bo‘lgan muloqot yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
2. ЎТИЛ. 5 жилдли. 3-жилд. –Т.: ЎЗМЭ, 2007. –В.626.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. T.: “Turon-Iqbol”, 2006. - B.120.
4. <https://muxlis.uz/oz/pages/tabassum>
5. <http://xabardor.uz/tabassum-koz-nuri-otkirligi-uchun-foydalimi-tabassum-haqida-7-fakt>
6. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/32870-tabassum-qiling.html>

SHOIR ERKIN VOHIDOVNING ANTONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

(Shoir dostonlari misolida)

Adizova Nilufar Istamovna,
BuxDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Poetik asarlarda har bir til birligi muhim estetik ahamiyat kasb etadi. Ulardan qay tarzda foydalanish asosida ijodkorning o‘ziga xos mahorati va uslubi namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq shoiri Erkin Vohidovning qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan foydalanish mahorati uning dostonlari misolida tahlil qilingan. Lingvopoetik xarakterdagi mazkur mavzu doirasida shoirning antonim so‘zlar orqali lirik qahramon kechinmalarini tasvirlash, asar voqealarining ta’sirli, rang-barang bo‘lishini ta’minlash mahorati aks etgan. Uning til birliklariga zargarona

yondashishi orqali o'ziga xos uslubi bilan bir qatorda tilimiz imkoniyatlarining sarhad bilmasligi namoyon etilgan

Kalit so'zlar: antonim, antiteza, ifoda imkoniyatlari, leksema, zidlik munosabati, stilistik vazifa, tazod san'ati, emotsionallik, ekspressivlik, kontekst, estetik vazifa, turli pozitsiyada turuvchi birliklar.

Poetik matnda har bir til birligi muhim estetik vazifa bajaradi. Ular kuchli ta'sirchanlik, lirik qahramon kechinmalarini ifoda etish omili sifatida ijodkor mahoratini namoyon etadi. Har bir so'z ustasi ijodi davomida o'zaro qarama-qarshi ma'noni ifoda etadigan leksik birliklarga ko'proq murojaat qiladi. Bunga sabab badiiy adabiyot hayotning in'ikosidir, unda har bir hodisa mohiyati, qahramon va personajlar xarakter xususiyatlari zidlanish, qiyoslanish asosida o'zining chinakam qiyofasini namoyon etadi. O'zaro zid ma'noli so'zlar tilda antonimlar deb ham yuritiladi. Ular ikki so'z o'rtasidagi tushunchalarning qarama-qarshiligi asosida yuzaga keladi.[1, 36]. B.Mengliyev darsligida ham antonimlar (gr.antonimo-“zid nom”) leksemalar orasidagi zidlik munosabati deb qayd etiladi. Ular asosida qarama-qarshi hodisaning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Antonimlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1)har xil o'zakli antonim: *katta-kichik, muhabbat-nafrat*;

2)bir xil o'zakli antonim: *aqlli-aqlsiz, suvli-besuv*. [2,167].

Shoir Erkin Vohidov dostonlarida ham antonimlarning o'rni beqiyos. Shoir o'zaro bir-biriga semantik jihatdan zid ma'noli birliklardan muayyan voqelik, davrning salbiy yoki ijobiy tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish, ta'sirchanlikni oshirish, lirik qahramon xarakteridagi o'ziga xos individual jihatlarni ifoda etish uchun foydalanadi.

Ma'no jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar mumtoz adabiyotda tazod san'atini yuzaga keltiradi. Ularni qo'llash orqali ijodkor o'ziga xos badiiy lavhalar yaratadi.[3,60].Tazod badiiy ifoda unsurlaridan biri sifatida bevosita voqelikni ichki ziddiyat bilan ochishga xizmat qiladi hamda asarda aks etayotgan obraz, voqelik yoki hodisalarning ta'sirchanligini, badiiy, estetik qimmatini oshirishga hissa qo'shadi.[4,40].

Antonimlarning muhim stilistik vazifasi ularning antiteza hosil qilishda leksik vosita bo'lishidir.[5,13]. Antitezada qarama-qarshi qo'yish orqali ta'sirchanlik orttiriladi. Nutqda ifodalilikni yanada

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

kuchaytirish maqsadida ma'nosi jihatdan bir-biriga zid tushunchalar, mazmunan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo'yish bilan qiyoslash usuli **antitezadir**. [6,27]. Undan poetik nutqda biror holat yoki hodisaning ichki mohiyatini ochish hamda lirik qahramon xarakter va xususiyatlarini yaqqolroq aks ettirish uchun foydalaniladi. Poeziyada, ko'pincha, antonimlardan biri bir misrada qo'llansa, boshqasi keyingi misrada qo'llanishi asosida kuchli kontrastlik, qarama-qarshilik yuzaga keltiriladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidov dostonlarida ham antonimlar muallif maqsadini amalga oshirishning muhim omili sifatida alohida qimmatga ega. Shoir ulardan ta'sirchanlikni oshirish, emotsionallik, ekspressivlikni hosil qilish uchun foydalanadi. Quyidagi misralarda shoir, odatda, o'zaro qarama-qarshi ma'no juftligini hosil qilmaydigan "o'ling" va "bor bo'ling" so'zlarini kontekstda antonim sifatida qo'llaydi, "yaxshi" bilan "yomon" so'zlari orqali esa antiteza hosil qilinadi:

o'ling~bor bo'ling;

yaxshi~yomon

Fikrat: Qiz bolaning hamma gaplari yolg'on, Ket desa ishonib ketib qolmangiz. Qiz bola desaki, "***o'ling xudoyo***", Ma'nosi-***bor bo'ling*** turguncha dunyo. Qovoq solib desa:-Siz juda ***yomon***, Dunyoda yo'q sizdan ***yaxshiroq*** inson. ("Taxt va baxt", B.131)

Erkin Vohidov har qanday nutq birligini zargarona qo'llay oladigan chinakam so'z ustasi. Muallif hatto atash ma'nosiga ega bo'lmagan yordamchi so'zlarga ham chuqur estetik vazifa yuklay oladiki, uning mahoratiga tan bermaslikning iloji yo'q. Shoir "agar" so'zini ijobiy hodisalar, "lekin"ni salbiy, noxush ishlarga nisbat bergan holda zidlantiradi. Qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi "do'st" va "dushman" leksemalarini takror holda qo'llash orqali kuchli mazmun hamda ta'sirchanlikni oshirishni ta'minlaydi:

agar~lekin;

do'st-do'st~dushman-dushman

Avallari hamma narsa oydin, aniq bo'lardi. ***Do'st-do'st, dushman-dushman***. Munosabat ham shunga yarasha. Endi zamon chigallashdi. Har masalaning yuzta "***agar***"i, har yechimning mingta "***lekin***"i bor.

("Taxt va baxt", B.136)

Odatda “so‘qir” bilan “oqil”, “johil” bilan “bashar” so‘zlari o‘zaro antonim bo‘lolmaydi. Biroq shoirning ustaligi bilan ma‘nosi bir-biri bilan zidlasholmaydigan birliklar ham kontekstda qarama-qarshi ma‘noni ifoda etadi. Misralardagi “so‘qir”, “ko‘r” odam voqelikni aniq anglolmasligi bilan johillikka moyil, biroq “oqil” inson har qanday hodisani to‘g‘ri baholay olishi bilan “bashar”, “inson” maqomiga loyiqligi o‘quvchiga singdiriladi. Antonimlar juft holda qo‘llanganda qarama-qarshi ma‘nodan ko‘ra, ko‘proq umumlashtirish ma‘nosi ifodalanadi. “Oq-u qaro” so‘zi jamlikni ifodalashi, ko‘p narsani qamrab olishi bilan ahamiyatli.

so‘qir, johil~ oqil, bashar

Said Muzaffar: *So‘qir, johil emas, oqil basharsiz, Baland tog‘lar aro ozod yasharsiz. Shukrkim, ajratorsiz oq-u qaroni, Bilarsiz, boshlagan kim mojaroni.*

(“Taxt va baxt”, B.143)

“Qon isi” va “non isi” birikmalarini matn tarkibida zidlantirib qo‘llash ijodkorning beqiyos mohirligi ifodasidir. Muallif “pok” hamda “nopok” so‘zlarini o‘zaro zid ma‘noda keltirgan holda “non isi” ni halollik, “qon isi” ni esa qing‘ir, nopok ishlarga nisbat berib qo‘llaydi va antitezani yuzaga keltiradi:

pok~nopok;

non isi~qon isi

Fikrat: *Yozibsiz, pok so‘mdan non isi kelar, Nopok milliondan qon isi kelar. Yoshman, donishim kam, rahnamo bo‘ling Yo‘lim yoritguvchi nur-ziyo bo‘ling.*

(“Taxt va baxt”, B.144)

So‘zlarning inkor va tasdiq shakllari poetik nutqda antiteza hosil qilishning keng qo‘llanadigan usuli bo‘lib, ijodkor voqelikka xos kontrastlikni yuzaga chiqaradi:

ochgan~ochmagan

Qalam! *Ehtromim, olqishim senga, Tanho kechalarda ey tanho ulfat. Olam yukin ortdim nozik belingga, Yo‘limiz olisdur, Toliqma faqat. Hech kimga ochmagan ko‘nglimni tanho Senga ochgan edim, sirdosh, qadrdon.* (“QM”, B.12)

yemas~yer;

maxluq~inson

Said Muzaffar: *Donish ila oy sathiga qo‘ysa-da qadam, Jaholatdan forig‘ bo‘la olmadi odam. O‘z qavmini yemas maxluq,*

lekin yer inson, Bu vahshatdan hamuz zamin ko'ksi to'la qon. ("Taxt va baxt", B.143)

Shoir dostonlarida, asosan, ot hamda fe'l so'z turkumiga oid so'zlar ko'proq ko'zga tashlanadi. Quyidagi misralarda muallif "tartib o'rnatish" va "ag'darish" birliklari asosida kontekstual qarama-qarshi ma'nolarni hosil qiladi:

tartib o'rnataman~ag'daraman

Fikrat: Men madaniyat dunyosi odamiman, sizlarning vahshiy qoidangiz bilan yashashga toqatim yo'q. Yurtga podshoh bo'lsam, mening aytganim bo'ladi. Bu yerda yo tartib o'rnataman yoki.. o'zim bosh bo'lib, podshohlikni ag'daraman. O'zimni-o'zim taxtdan qulatib, madaniyatli davlat quraman.

("Taxt va baxt", B.149)

Erkin Vohidov "Ruhlar isyoni" dostonida boshdan oxir ozodlik va qullik o'rtasida kechgan inson ruhining ayovsiz kurashi jarayonlarini aks ettiradi. Muallif hind xalqining achchiq qismati va tarixida o'chmas iz qoldirgan, hurlik ramziga aylangan shoir Nazrul Islom taqdiri orqali qatag'onga uchragan o'zbek ziyolilari qismatini ham aks ettirgandek bo'ladi go'yo. Shu sababdan ushbu asarda voqelikning tub mohiyati o'zaro kontrast tushunchalar ifodasi asosida yoritib boriladi:

quvonch~dard-u g'am;

kam~ziyoda, ko'p

ulfati~kulfati;

to'kadi~ cho'kadi

Bu dunyoning Quvonchi kam, Dard-u g'ami-ziyoda, Ammo g'amdan qochmoqning ham Tadbiri ko'p dunyoda. Kimning dildosh Bor ulfati, Dardin unga to'kadi. Yolg'izlarning bor kulfati Dil tubiga cho'kadi. ("Ruhlar isy.", B.35)

tun~kun;

o't~suv

Tun bilan kun, O't bilan suv Bir-biriga zolimdir. Koinotda Azal, Mangu Isyon ruhi hokimdir. ("Ruhlar isyoni", B.44)

oshkor~pinhon;

ibtido~intiho;

qanoat~isyon

Yer-u ummon, Burjlar aro Xohi oshkor, xoh pinhon, Ibtidodan to intiho Hukm surar g'alayon. Sobir inson yuragida Qanoatki

barqaror, Kosa yanglig' Sabr tagida Otash yanglig' Isyon bor. ("Ruhlar isyoni", B.45)

ko'ndi ~ ko'nmadi

Nazrul Islom Hind xalqining Zardobini yutardi. Nazrul Islom O'z qalbini Bayroq qilib ko'tardi. Yuragida to so'nggi dam Isyon o'ti so'nmadi. Haqsizlikka ko'ndi olam, Ammo shoir ko'nmadi. ("Ruhlar isyoni", B.49)

Shoirning so'z qo'llash mahorati kamalakning rang-barang jozibasini yodga soladi. Muallif antonim leksemalardan antiteza hosil qilishda unumli foydalanish bilan bir qatorda ba'zi birliklarni garchi antonim juftligi bo'lmasa-da, kontekstda qarama-qarshi so'zlar sifatida misralar bag'riga singdirib yuboradi. Masalan, muallif "jafo" va "vafo" kabi antonim juftlikdan foydalanish bilan bir qatorda "nochor", "mag'lub", "ilojsiz" kabi ma'nolarni ifoda etuvchi(O'TIL, B.121) "zabun"so'zini "abadiy", "mangu" semalarini yuzaga chiqaruvchi(O'TIL, B.98) "jovidon" so'zi bilan kontekstda zidlantiradi:

jafo~vafo;

zabun~jovidon

*"Jafo uchun, Vafo uchun Haqin oldi Shoh Jahon. Biri uni qildi zabun Biri esa-jovidon. G'amli tarix ibrat bo'lsin, Bo'lsin senga namuna..."*Deya, asta, ma'yus, sokin Oqib yotar Jamuna. ("Ruhlar isyoni", B.99)

rikshami~sohibmi

gadomi~zodagon

Rikshami bu, sohibmi bu, Gadomi yo zodagon-Farqsiz, Faqat-Bir yon hindu, Bir yon esa-musulmon. ("RI", 61)

Muallif dostonlarida frazeologik birliklar asosida ham qarama-qarshi ma'no ifodalanishi kuzatiladi. Bundan shoir voqelik tasvirini, ta'sirchanligini oshirish, sub'yektiv munosabatni bo'rttirish maqsadini ko'zlaydi:

tuproqqa qording~ boshga ko'tarding

Ey sen, buyuk shahar, Muzaffar poytaxt! Shohi jahonlarni tuproqqa qording. Ammo menga yasab shunday yuksak taxt Jahon shohi qilib boshga ko'tarding. ("Quyosh maskani", B.10)

yelkasiga ko'tardi~muzdek suv quydi

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

Maqsad sohiliga intildim betin, Intilmoq yor bo‘ldi go‘dak yoshimdan. Gohi yelkasiga ko‘tardi to‘lqin, Goh esa muzdek suv quydi boshimdan. (“QM”, B.14)

Oq va qora ranglar o‘zaro yaqqol farqlanib turganidek bir-biri bilan qarama-qarshi ma’noda aks etuvchi tilning eng faol va eng kuchli tasvir vositasi bo‘lgan antonimlar ham ijodkor individual uslubini namoyon etishning muhim omili sifatida badiiy asarda alohida ko‘zga tashlanadi. Chinakam iste’dod sohibi ularni nafaqat qarama-qarshi ma’noli so‘zlar orasidan, balki turli pozitsiyada turuvchi birliklar orasidan ham tanlay oladi. Bu kabi birliklar o‘quvchiga har qanday hodisani taqqoslash, baholash, munosabat bildirish, xulosa chiqarish, hatto ibrat olish imkonini ham yarata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qilichev E. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi-1985. B. 36.
2. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent: Tafakkur bo‘stoni. 2008, B. 167.
3. Jahonov J. Mumtoz she‘riyat latofati. Buxoro: Durдона-2014. B.60.
4. Qurbonova M. Mustaqillik davri dostonlari lingvopoetikasi. Farg‘ona. Fil. fanlari nomzodi: dis. 2019, B. 40
5. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. Toshkent: Fan, 1981, B.13
6. Adizova N. I. Erkin Vohidov dostonlarining fonetik-fonologik xususiyatlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 859-867.

HUNARMANDCHILIK SOHASIDA PERIFRAZALAR

Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,

BuxDU o‘qituvchisi

Latipova Dildora Komiljon qizi,

BuxDU magistranti

Annotatsiya: Maqolada hunarmandchilik sohasining milliy an‘ana va qadriyatlarimizni shakllantirishdagi o‘rni va amaliy ahamiyati xususida so‘z borishi bilan birgalikda, shu sohada qo‘llanuvchi perifrazalar ham tahlilga tortilgan bo‘lib, perifrazalar